



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

30.11.2021 yil

319 um-son

Adliya organlari va muassasalarida tanishtiruv, bitiruv malakaviy amaliyot o'tash va ish o'rganishni takomillashtirish haqida

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash hamda yurisprudensiya mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar tomonidan adliya organlari va muassasalarida tanishtiruv, bitiruv malakaviy amaliyot o'tash va ish o'rganish tartibini belgilash maqsadida

BUYURAMAN :

1. Quyidagilar:

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan adliya organlari va muassasalarida tanishtiruv hamda bitiruv malakaviy amaliyot o'tash tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan adliya organlari va muassasalarida ish o'rganish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Kadrlar boshqarmasi (Sh.Qo'chqarov):

o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim va OTMda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar tomonidan adliya organlari va

muassasalarida amaliyot o'tashni va ish o'rganishni nizom talablari asosida tizimli tashkil etsin va bu yo'nalishni muvofiqlashtirsin;

yurisprudensiya mutaxassisligi bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash choralari ko'rsin;

"Adliya" talabalar klubi a'zosi sifatida adliya organlari va muassasalarida ish o'rganish istagini bildirgan talabalarni tizimli ravishda jalb qilish choralari ko'rsin.

3. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, adliya organlari va muassasalari rahbarlari birlashtirilgan ta'lim oluvchilarning amaliyot o'tashini va ish o'rganishni tashkil etishga mas'ul ekanligi belgilansin.

4. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2018-yil 28-martdagi 89-um-son "O'zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalarida oliy ta'lim muassasalarining talabalari tomonidan ish o'rganishni tashkil etish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

5. Tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi (A.Buriyev) mazkur buyruqni vazirlikning manfaatdor tarkibiy bo'linmalariga yetkazsin.

6. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari A. Tashkulov zimmasiga yuklansin.

Adliya vaziri



R.DAVLETOV

Toshkent shahar

**Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalari
tomonidan adliya organlari va muassasalarida tanishtiruv hamda bitiruv malakaviy
amaliyot o‘tash tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF–5987-son “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq yurisprudensiya mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi professional va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar tomonidan adliya organlari va muassasalarida tanishtiruv hamda bitiruv malakaviy amaliyot o‘tash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

2. Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

amaliyot – nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikma va mahorat hosil qilish, amaliyotda ishlashga tayyor bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan o‘quv jarayonining bir qismi;

amaliyot o‘tash dasturi – ishchi-o‘quv rejalarini hisobga olgan holda professional va oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan dastur;

tanishtiruv amaliyoti – professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari va OTM bakalavriatning I – III bosqich talabalari tomonidan kelajakdagi kasbiy faoliyat haqida ma’lumotlar olish va nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda o‘quv dasturlarini va/yoki kreditlarni o‘zlashtirish maqsadida o‘taladigan ixtiyoriy amaliyot turi;

bitiruv malakaviy amaliyot – oliy ta’lim muassasalari bakalavriatning IV bosqich talabalari tomonidan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish orqali amaliyotda ishlashga tayyor bo‘lishlarini ta’minlash, shuningdek, bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo‘yicha materiallar to‘plash maqsadida o‘taladigan majburiy amaliyot turi;

qabul qiluvchi tashkilot – ta’lim oluvchilar tomonidan amaliyot o‘talayotgan adliya organlari va muassasalari;

qabul qiluvchi tashkilotdan biriktirilgan amaliyot rahbari – talabalarni amaliyot ko‘nikmalarga o‘rgatish va ta’lim muassasasidan biriktirilgan amaliyot rahbari bilan birgalikda egallangan bilimlarni baholash mas’uliyati yuklangan qabul qiluvchi tashkilot xodimi;

ta’lim oluvchilar – o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim va OTMda ta’lim olayotgan o‘quvchilar va talabalar;

ta’lim muassasasi – o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim va OTM;

ta’lim muassasasidan biriktirilgan amaliyot rahbari – bitiruv malakaviy amaliyotni tashkil etishga hamda uni nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan professional va oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi yoki mas’ul xodimi;

3. Adliya organlari va muassasalarida amaliyot o‘tash ta’lim muassasalari bilan qabul qiluvchi tashkilot o‘rtasidagi shartnoma (kelishuv) asosida amalga oshiriladi, qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno.

Shartnomada shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatlari, amaliyotni tashkil etish tartibi, shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani bekor qilish asoslari, shuningdek, taraflarning javobgarligi kabi shartlar bo‘lishi lozim.

4. Amaliyot uzluksiz hamda nazariy bilimlar bilan navbatlanish yo‘li orqali amalga oshirilishi mumkin. Amaliyotning barcha turlari amaliyot o‘tash dasturida va boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan muddatlarda o‘tkaziladi.

Agar ta‘lim muassasasi tomonidan boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, nazariy ta‘lim bilan navbatlanish yo‘li orqali o‘taladigan amaliyotga mazkur Nizom qoidalari qo‘llaniladi.

5. Amaliyotni tayyorlash, ta‘minlash va o‘tashni muvofiqlashtirish ta‘lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

2-bob. Amaliyot o‘tashni tashkillashtirish

6. Amaliyotni o‘tashga doir talablar amaliyot o‘tash dasturlari bilan belgilanadi. Amaliyotni barcha bosqichlarda tashkil etish ta‘lim oluvchilar tomonidan kasbiy faoliyatni egallashda uzluksizlik va izchillikni ta‘minlashga yo‘naltirilishi lozim.

7. Qabul qiluvchi tashkilotda amaliyotni tashkillashtirish uchun ta‘lim muassasalari kuzatuv xat bilan quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

adliya organlar va muassasalarda amaliyot o‘taydigan ta‘lim oluvchilarning mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq shaklda ro‘yxati;

amaliyot o‘taydigan ta‘lim oluvchilarning ma‘lumotnoma-obyektivkalari;

amaliyot o‘tash dasturi.

8. Qabul qiluvchi tashkilotga mazkur Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar kelib tushgandan so‘ng adliya organlari va muassasalarining kadrlar sohasiga mas‘ul tarkibiy bo‘linma ta‘lim oluvchilarni tarkibiy bo‘linmalarda amaliyot o‘tash taqsimot loyihasini ishlab chiqadi.

Taqsimot adliya organlari va muassasalarining rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

9. Qabul qiluvchi tashkilot amaliyotga yuborilgan ta‘lim oluvchilarga amaliyot rahbarini (keyingi o‘rinlarda – mentor) biriktiradi.

10. Adliya organlari va muassasalarining kadrlar sohasiga mas‘ul tarkibiy bo‘linmasi tomonidan ta‘lim oluvchilarga, Adliya vazirligi va tuzilmasining vazifa va faoliyat yo‘nalishlari, tegishli direktiv hujjatlar (ichki tartib qoidalar, mehnatni muhofaza qilish hamda faoliyat xavfsizligini ta‘minlashga oid hujjatlar) haqida tushuntirish berilishi lozim.

3-bob. Amaliyot o‘tash tartibi

11. Amaliyot quyidagi turlarda o‘taladi:

tanishtiruv amaliyoti;

bitiruv malakaviy amaliyot;

12. Amaliyotni o‘tash muddati va joyi amaliyotni o‘tash dasturi bilan nazariy tayyorgarlik hamda tanlangan mutaxassisligini inobatga olgan holda belgilanadi.

13. Ta‘lim oluvchi amaliyot o‘tashda:

amaliyot bo‘yicha uslubiy va ko‘rsatma materiallar bilan tanishishi;

amaliyotni tashkil etish va o‘tashni nazorat qilish bo‘yicha tadbirlarda ishtirok etishi;

amaliyot o‘tash dasturida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to‘liq hajmda va sifatli bajarishi;

keyingi amaliy faoliyatda foydalanilishi mumkin bo‘lgan materiallar to‘plamini shakllantirishi;

qabul qiluvchi tashkilotning ichki mehnat tartib qoidalari va xodimlari faoliyatining tartibini belgilovchi hujjatlarga rioya qilishi shart.

14. Ta‘lim oluvchilar tomonidan qonunchilik hujjatlari asosida taqiqlangan harakatlarni amalga oshirish hamda amaliyot o‘tash davomida xizmatga doir va boshqa ma‘lumotlarni oshkor etish qat’iy taqiqlanadi.

15. Ta‘lim muassasasidan biriktirilgan amaliyot rahbari:

amaliyot o‘tashga ketayotgan ta‘lim oluvchilarga uni o‘tash bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar beradi;

ta‘lim oluvchilarning amaliyot o‘tash joyiga yetib kelishini nazorat qiladi;

mentor bilan aloqalar o‘rnatadi;

ta‘lim oluvchilarga amaliyot o‘tash dasturini bajarish bo‘yicha uslubiy yordam ko‘rsatadi;

amaliyotning butun davri uchun ta'lim oluvchilarga individual reja tuzadi, mentor bilan birgalikda ishning hajmi va tarkibini belgilaydi;

amaliyot o'tash joylariga talabalarni taqsimlashda ishtirok etadi;

amaliyotni o'tash muddatlari va uni o'tash tartibiga rioya qilinishi, shuningdek, amaliyotni o'tash dasturi bajarilishining nazoratini, shu jumladan, bevosita ta'lim oluvchilar amaliyot o'tayotgan joyga chiqish yo'li bilan amalga oshiradi.

16. Mentor:

ta'lim oluvchilarga texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, shuningdek qabul qiluvchi tashkilotning ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi;

qabul qiluvchi tashkilotning belgilangan obyektlari bo'yicha talabalarni taqsimlaydi, uning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

ta'lim oluvchilarni amaliyot o'tash dasturiga taalluqli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi;

ta'lim oluvchilar tomonidan amaliyot o'tash dasturining bajarilishi uchun zarur sharoitlar yaratadi;

ta'lim oluvchilarga ishlab chiqarish masalalari bo'yicha maslahatlar beradi;

bajarilayotgan ish ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi;

ta'lim oluvchi ish kunining belgilangan davomiyligiga rioya etilishini ta'minlaydi;

ta'lim oluvchi ish vaqtdan samarali foydalanishini ta'minlaydi;

amaliyot o'tash to'g'risidagi hisobotni va kundalikni tasdiqlaydi;

ta'lim muassasasidan biriktirilgan amaliyot rahbarini ta'lim oluvchi tomonidan amaliyot o'tash dasturi bajarilmayotganligi hamda barcha mehnat intizomi buzilishlari haqida xabardor qiladi;

ta'lim muassasasidan biriktirilgan amaliyot rahbari bilan aloqani ushlab turadi.

Mentorga ta'lim oluvchiga amaliyot o'tash dasturi bilan bog'liq bo'lmagan topshiriqlarni berish taqiqlanadi.

17. Mentorlari amaliyot kundaligiga ta'lim oluvchining ijobiy va salbiy fazilatlarini, uning o'zlashtiruvchanligi va boshqa ma'lumotlarni yorituvchi yozuvlarni kiritish huquqiga ega.

18. Amaliyot yakunlari bo'yicha hisobotda bajarilgan ish, o'rganilgan huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek olingan bilim va ko'nikmalar aks ettiriladi. Hisobot ta'lim oluvchi tomonidan tuzilib imzolanadi.

19. Mentorlar tomonidan ta'lim oluvchilarni amaliyotni o'tashdan ozod qilishga yo'l qo'yilmaydi (uzrli sabablar bundan mustasno).

20. Qabul qiluvchi tashkilot tomonidan quyidagi hollarda ta'lim oluvchiga tanbeh e'lon qilinadi:

Amaliyot o'tash davomida uzrli sabablarsiz biriktirilgan adliya organi yoki muassasasiga uch ish kundan ortiq muddatda kelmaganda;

unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

amaliyot o'tash davomida belgilangan vazifalarni bajarishga mas'uliyatsizlik va sovuqqonlik bilan yondashganda;

odob-axloq qoidalarini buzganda;

huquqbuzarlik sodir etganda.

21. Tanbeh e'lon qilishga biriktirilgan mentorning va kadrlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linmaning bildirgisi asos bo'ladi.

Tanbeh adliya organi va muassasa rahbariyati tomonidan ta'lim oluvchining ta'lim muassasasiga yozma ravishda kiritiladi.

22. Ta'lim oluvchilarning amaliyot o'tash doirasidagi faoliyati ularni ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonidagi majburiyatlardan ozod etmaydi.

**Oliy ta’lim muassasalari talabalari tomonidan adliya organlari
va muassasalarida ish o‘rganish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq yurisprudensiya mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy ta’lim muassasalar talabalari tomonidan adliya organlari va muassasalarida ish o‘rganish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

2. Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

“Adliya” talabalar klubi – yurisprudensiya mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda – OTM) talabalari tomonidan o‘qishdan bo‘sh paytlarida adliya organlari va muassasalarida tizimli ish o‘rganish;

mentor – talabalarga ish o‘rganishda, ularning kasb-mahorati, bilimi, malakasini oshirish, shaxsiy va ishchanlik xislatlarini shakllantirishda amaliy yordam ko‘rsatadigan adliya organlari va muassasalaridan birlashtirilgan xodim;

beyjik – klub a‘zosining birlashtirilgan adliya organlari va muassasalarida ish o‘rganish va binoga kirib-chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjat;

3. Yurisprudensiya mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlaydigan OTM talabalari tomonidan o‘qishdan bo‘sh paytlarida adliya organlari va muassasalarida tizimli ish o‘rganishni yo‘lga qo‘yish uchun Adliya vazirligi tizimida “Adliya” talabalar klubi (keyingi o‘rinlarda – klub) tashkil etiladi.

4. Klubning nomlanishi:

o‘zbek kiril alifbosida – “Adliya” talabalar klubi;

o‘zbek lotin alifbosida – “Adliya” talabalar klubi;

rus tilida: – Klub studentov “Yustitsiya”;

igliz tilida: – “Justice” students‘ club.

5. Klubning asosiy maqsadlari:

yuqori malakali kadrlarni tayyorlash borasida adliya organlari va muassasalari bilan OTM hamkorligini mustahkamlash;

OTM talabalarining (keyingi o‘rinlarda talabalar) adliya organlari va muassasalarida tizimli ish o‘rganishini tashkillashtirish;

talabalarining nazariy bilimini huquqni qo‘llash amaliyoti bilan uyg‘unligini ta‘minlash;

adliya organlari va muassasalarining kadrlar zaxirasini mustahkamlash borasida talabalarni bo‘lajak kadr sifatida kasbga tayyorlash.

6. Klub a‘zolariga talabaning murojaati asosida qabul qilinadi.

7. Mazkur Nizom qoidalariga muvofiq ish o‘rganish uzluksiz hamda nazariy bilimlar bilan navbatlanish yo‘li orqali amalga oshirilishi mumkin.

8. Adliya organlari va muassasalari bilan OTMning hamkorligi oshkoralik, ixtiyoriylik, uzluksizlik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

9. Klub faoliyatiga umumiy rahbarlik Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Klub doirasida ish o‘rganishni tashkillashtirish, ta‘minlash va muvofiqlashtirish vazirligining Kadrlar boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda – ishchi organ) tomonidan amalga oshiriladi.

2-bob. Ish o'rganishni tashkillashtirish

10. Ishchi organ tomonidan klub a'zosi sifatida adliya organlari va muassasalarida ish o'rganish istagini bildirgan OTMda bakalavr va magistratura bosqichida ta'lim olayotgan talabalarni tizimli ravishda kalendar yilning 1-noyabriga qadar jalb qilish choralari ko'rilishi lozim. Bunda, ish o'rganish istagini bildirgan talabalar ro'yxati, ularning ma'lumotnoma-obyektivkalari va boshqa zarur hujjatlar tegishli OTMdan so'rov yo'li bilan olinadi.

11. Ishchi organ tomonidan OTM taqdim qilgan hujjatlar kalendar yilning 10-noyabriga qadar o'rganib chiqiladi.

O'rganish natijasida ishchi organ tomonidan klub a'ziligiga qabul qilingan talabalarning ro'yxati va ish o'rganish taqsimoti loyihasi shakllantiriladi hamda belgilangan tartibda rahbariyat tasdiqlaydi.

Zaruratga ko'ra, klub a'ziligiga talabgorlarning bilim darajasini va dunyoqarashini aniqlash maqsadida suhbat o'tkazilishi mumkin.

12. Ishchi organ tomonidan klub a'zolari ish o'rganish maqsadida quyidagi tartibda adliya organlari va muassasalariga taqsimlanadi:

OTMning **birinchi va ikkinchi bosqich talabalari** – tuman (shahar) adliya bo'limlari, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari va FHDYO organlari;

OTMning **uchinchi bosqich talabalari** – Yuristlar malakasini oshirish markazi, hududiy adliya organlari, Davlat xizmatlari agentligining hududiy boshqarmalari;

OTMning **to'rtinchi bosqich va magistratura talabalari** – Adliya vazirligi markaziy apparati, Davlat xizmatlari agentligi, Intellektual mulk agentligi, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi va X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi.

Alohida hollarda, klub a'zosini ta'lim bosqichidan qat'iy nazar adliya tizimidagi tashkilotlarga biriktirilishi mumkin.

Bir shaxs bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq adliya organlari va muassasalarida, shuningdek boshqa organlarda klub a'zosi bo'lishi mumkin emas.

13. Ishchi organ tomonidan har kalendar yil bo'yicha ushbu Nizomning ilovasiga muvofiq shaklda klub a'ziligiga qabul qilingan talabalar reestri elektron shaklda shakllantiriladi.

14. Klub a'ziligiga qabul qilingan talabalar taqsimotga ko'ra biriktirilgan adliya organlari va muassasalariga ish o'rganish uchun yuboriladi.

Klub faoliyatini to'g'ri tashkil etish va muvofiqlashtirib borish maqsadida ishchi organ tomonidan klub a'zolarini adliya organlari va muassasalaridagi "ustoz-shogird" an'analari asosida tajribali xodimlarga (keyingi o'rinlarda mentor) biriktiriladi.

15. Klub a'zolar bilan ishni tashkil qilish, faoliyati to'g'ri olib borilishi uchun adliya organlari va muassasalarining rahbarlari va biriktirilgan mentorlar mas'ul hisoblanadi.

16. Adliya organlari va muassasalarining kadrlar sohasiga mas'ul tarkibiy bo'linmasi tomonidan klub a'zolariga Adliya vazirligining tuzilishi, vazifa va faoliyat yo'nalishlari, tegishli lokal hujjatlar (ichki tartib qoidalar, mehnatni muhofaza qilish hamda faoliyat xavfsizligini ta'minlashga oid hujjatlar) haqida tushuntirish berilishi lozim.

17. Reestrda kiritilgan klub a'zolariga beyjik topshiriladi va klub a'zosi ish o'rganish vaqtida uni taqib yuradi.

18. Klub a'zolarining ish o'rganishi OTMdagi o'qishdan bo'sh paytlarida amalga oshiriladi.

19. Adliya organlari va muassasalarida klub a'zolarining kelib-ketishini qayd qilish jurnali yuritilishi lozim.

3-bob. Klub doirasida ish o'rganish tartibi

20. Klub a'zosi klub faoliyati doirasidagi faoliyatining maqsadlari, shuningdek, adliya organi va muassasalarining vazifalari hamda xususiyatlaridan kelib chiqib, biriktirilgan mentor ishtirokida ishlab chiqilgan va tegishli tarkibiy bo'linma rahbari tomonidan tasdiqlangan ish o'rganish rejasiga muvofiq tashkil etadi.

Ish o'rganish rejasida bajariladigan ishlarning mazmuni va muddati ko'rsatiladi.

21. Klub a'zolarining huquqlari:

klub faoliyatiga oid ma'lumotga ega bo'lish;

adliya organlari va muassasalarida ish o'rganish;
mentorning ruxsati bilan adliya organlari va muassasalari faoliyatiga oid tegishli ma'lumotlar bilan tanishish va olish;

keyingi amaliy faoliyatda foydalanilishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirish;

klub doirasida tashkil etiladigan tadbirlar ishtirok etish.

Klub a'zolari klub faoliyati bilan bog'liq boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

22. Klub a'zolarining majburiyatlari:

ish o'rganish davrida mentorning ishga oid qonuniy ko'rsatmalarini bajarish;

ish o'rganish rejasida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda va sifatli bajarish;

adliya organlari va muassasalarining ichki mehnat tartib qoidalari va xodimlari faoliyatining tartibini belgilovchi hujjatlarga rioya qilish;

ish o'rganish davrida adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalari o'rnatilgan cheklovlarga amal qilish.

Klub a'zolari klub faoliyati bilan bog'liq boshqa majburiyatlar yuklatilishi mumkin.

23. Klub a'zoriga qabul qilingan talaba unga yuklatilgan majburiyatlar bilan tilxat orqali tanishtiriladi.

24. Klub a'zosi mazkur Nizomda belgilangan vazifalarni bajaradi. Klub a'zosiga hujjatlarni mustaqil ijro qilishi, davlat sirlari yoki boshqa shaxslarning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hujjatlar bilan ishlashi, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan hujjatlarni talab qilib olishi, fuqarolarni qabul qilishi va tushuntirishlar olishi, faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilishi yoki muhokama qilishi, qonun hujjatlari bilan taqiqlangan boshqa harakatlarni amalga oshirishiga yo'l qo'yilmaydi hamda u bu haqida yozma ravishda ogohlantiriladi.

Ushbu bandeda belgilangan qoidalarga rioya qilinishini ta'minlash biriktirilgan mentor zimmasiga yuklatiladi.

25. Mentorning huquq va majburiyatlari:

klub a'zolarining kasb-mahorati, bilimi, malakasini oshirish, shaxsiy va ishchanlik xislatlarini shakllantirib borish choralari ko'radi;

klub a'zolariga texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, shuningdek adliya organlari va muassasalarining ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi;

adliya organlari va muassasalarining belgilangan obyektlari bo'yicha talabalarni taqsimlaydi, uning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

klub a'zolari ish o'rganish rejasiga taalluqli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi;

klub a'zolariga ish o'rganish uchun zarur sharoitlar yaratadi;

klub a'zosiga ish o'rganish rejasidagi bandlar va ish faoliyat davomidagi masalalar bo'yicha maslahatlar beradi;

bajarilayotgan ish ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi;

klub a'zosi ish o'rganishning belgilangan davomiyligiga rioya etilishini ta'minlaydi;

klub a'zosi ish vaqtidan samarali foydalanishini ta'minlaydi;

ish o'rganish to'g'risidagi hisobotni tasdiqlaydi;

klub a'zosi tomonidan Nizom talablari va intizom buzilishlari haqida ishchi organni xabardor qiladi;

ta'lim muassasasidan biriktirilgan xodim bilan hamkorlikni o'rnatadi.

26. Mentorga klub a'zosiga ish o'rganish rejasini bilan bog'liq bo'lmagan topshiriqlarni berish taqiqlanadi va ularni ish o'rganishdan ozod qilishga yo'l qo'yilmaydi (uzrli sabablar bundan mustasno).

27. Ta'lim muassasasidan biriktirilgan xodim:

klub a'zosini biriktirilgan adliya organi va muassasasiga yetib borishini nazorat qiladi;

mentor bilan hamkorlikni o'rnatadi;

klub a'zosiga ish o'rganish rejasini bajarish bo'yicha uslubiy yordam va yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi;

ish o'rganish joylariga klub a'zolarini taqsimlashda ishtirok etadi.

Ish o'rganish muddatlari va uni o'tash tartibiga rioya qilinishi, shuningdek, ish o'rganish rejasini bajarilishining nazoratini bevosita adliya organlari va muassasalarga joyga chiqqan holda amalga oshirishi mumkin.

28. Ish o'rganish muddati yakuni bo'yicha klub a'zosi hisobotda bajarilgan ish, o'rganilgan huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek, olingan bilim va ko'nikmalar aks ettiriladi. Hisobot klub a'zosi tomonidan tuzilib imzolanadi.

29. Klub a'zosining klub doirasidagi faoliyat natijalari bo'yicha mas'ul tarkibiy bo'linma rahbari va mentor tomonidan uning ish o'rganish davomida olgan amaliy bilim va ko'nikmalari, faolligi, berilgan topshiriqlarni bajarishi va tegishli adliya organlari va muassasalari faoliyatidagi ishtiroki ko'rsatilgan tavsifnoma tuzilib, ishchi organga taqdim qilinishi lozim.

4-bob. Klub a'zolarini rag'batlantirish va ularga chora ko'rish tartibi

30. Ish o'rganish davrida o'zining namunaviy xulqi va bilimi bilan boshqalarga o'rnak bo'lgan, ish o'rganishga vijdonan yondashgan klub a'zolari adliya organi va muassasa rahbarlari tomonidan faxriy yorliq yoki tashakkurnoma bilan rag'batlantirilishi mumkin.

Rag'batlantirishga biriktirilgan mentoring va kadrlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linmaning bildirgisi asos bo'ladi.

31. Quyidagi hollarda klub a'zosiga tanbeh e'lon qilinishi mumkin:

uzrli sabablarsiz biriktirilgan adliya organi yoki muassasasiga besh ish kundan ortiq muddatda kelmaganda;

unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ish o'rganish davomida belgilangan vazifalarni bajarishga mas'uliyatsizlik va sovuqqonlik bilan yondashganda;

odob-axloq qoidalarini buzganda;

huquqbuzarlik sodir etganda.

32. Tanbeh e'lon qilishga biriktirilgan mentoring va kadrlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linmaning bildirgisi asos bo'ladi.

Tanbeh adliya organi va muassasa rahbariyati tomonidan yozma ravishda beriladi va tanbeh e'lon qilingan klub a'zosiga tanishtiriladi.

Kadrlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linma tanbeh e'lon qilingandan so'ng uch ish kunida ishchi organga ma'lum qilishi va ishchi organ tomonidan bu haqida reestrغا tegishli yozuv kiritishi lozim.

Tanbehning amal qilish muddati ikki oy.

33. Talabalar quyidagi asoslarga ko'ra klub a'zolidan chiqarilishi mumkin:

o'z xohishiga ko'ra bergan arizasiga asosan;

OTMni tamomlaganda;

talabalar safidan chetlashtirilganda va (yoki) akademik ta'til olganda;

ikki oy davomida ikki marotaba tanbeh e'lon qilinganda;

adliya organlari va muassasalarida ish o'rganish davomida xizmatga doir va boshqa ma'lumotlarni oshkor etganda;

ish o'rganishni davom ettirishga sog'lig'i imkon bermaganda;

jinoiy javobgarlikka tortilganda.

34. Talabani klub a'zolidan chiqarish haqida mentor tegishli kadrlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linmaga bildirgi bilan murojaat qiladi. Kadrlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linma taqdim qilingan hujjatlarni 10 kunlik muddatda ko'rib chiqadi. Agar bildirgida ko'rsatilgan vajlar asosli deb topilsa, adliya organi va muassasa tomonidan ishchi organga talabani klub a'zosidan chiqarish haqida yozma ravishda xabarnoma yuboradi.

Ishchi organ kelib tushgan xabarnomadagi ma'lumotlarni klub a'zolidan qabul qilingan talabalar reestrining tegishli ustuniga kiritadi.

35. Ishchi organ klub a'zolidan chiqarilgan talabalar haqida OTMni xabardor qiladi.

36. Klub a'zolidan chiqarilgan talaba beyjikni adliya organi va muassasasiga topshirishi lozim.

37. Talabani klub a'zolidan chiqarishga asos bo'lgan holatlarning bartaraf etilganligi (sog'lig'i tiklanganda, talabalar safiga tiklanganda, klub a'zolidan qabul qilish haqida murojaat etganda va boshqalar) uni klub a'zolidan qayta qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Mazkur Nizom talablarini buzganligi uchun klub a'zolidan chiqarilgan talaba kamida olti oy o'tgach klubga takroran qabul qilinishi mumkin.

5-bob. Yakuniy qoidalar

38. Klub a'zolarining klub doirasidagi faoliyati ularni OTMdagi ta'lim jarayoni doirasidagi majburiyatlardan ozod etmaydi.

39. Klub a'zolari bilan ishni noto'g'ri tashkil etgan, ularning shaxsiy, ma'naviy sifatleri va ishchanlik qobiliyatlarini atroflicha o'rganmasdan, noto'g'ri ma'lumot yoki tavsifnoma bergan mentor belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

40. Klubga a'zo bo'lgan va ish o'rganish davri ijobiy tavsiflangan OTMning to'rtinchi bosqich va magistratura talabarlari Adliya organlari va muassasalarida HR-menejment tizimi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq suhbat natijalariga ko'ra maxsus komissiyasining ijobiy xulosasiga asosan tanlovsiz ishga qabul qilinishi mumkin.

41. Mazkur Nizomda belgilangan talablarga amal qilmaslik xodimni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

